

# Yashil

IQTISODIYOT  
TARAQQIYOT  
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4

No 2



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 598 sahifa.

E'lion qilishga 2024-yil 29-fevralda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxanova Guinora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Uteyev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururasi boshqarma boshlig'i o'rinosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi,  
O'zR Bosh prokururasi huzuridagi IJQK departamenti.



# MUNDARIJA

Ilm-fanga baxshida umr .....	8
<b>Baxtiyor Islamov</b>	
Kichik biznesni rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotni keng tatbiq qilishning ahamiyati .....	10
<b>Gulnora Abdurahmonova Kalandarovna, Sanjar Baxodirovich G'oipnazarov</b>	
Brand Capital as a Determinant of Institutional Prestige and Student Choice in the Higher Education System ...	16
<b>Zufarova Nozima Gulamiddinovna</b>	
Inson va atrof-muhit dialektikasi: nomutanosiblik ko'rsatkichlari va ekologik muammolar .....	24
<b>Butaboyev Maxammadjon Tuychiyevich, Maxmudov Nosir Maxmudovich</b>	
Yashil budgetlashtirish va uni O'zbekistonda joriy etish istiqbollari .....	30
<b>Meyliev Obid Raxmatullayevich, Gofurova Kamola Xayrulla qizi</b>	
Iqtisodiyotda ta'lim va fan integratsiyasining asosiy yo'nalishlari .....	35
<b>Yormatov Ilmidin Toshmatovich</b>	
Transport vositalari va yo'llar turizm transport infratuzilmasini rivojlantirishning muhim omilidir .....	39
<b>Agzamov Shaxboz Akmalovich</b>	
Bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali samaradorligini oshirish .....	44
<b>A. X. Salamov</b>	
Biznes-reja baliqchilik xo'jaligi rivojlanishi uchun asos sifatida .....	48
<b>Dosmuratova Shaxista Kengashovna</b>	
Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va uning lizing munosabatlari rivojlanishi bilan bog'liqligi .....	55
<b>Axmediyeva Aliya Toxtarova</b>	
Turizmni rivojlantirish imkoniyatlari .....	63
<b>Ziyadullayev Ilhom Narkabilovich</b>	
Tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini oshirish muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari.....	67
<b>Shamsiyev Nodir Muratovich</b>	
Hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish masalalari.....	72
<b>Shagazatov Oybek bahodirovich</b>	
Hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish yo'nalishlari .....	76
<b>Davlatov Sanjar Abdimannonovich</b>	
Ijtimoiy rivojlanish xulq-atvor paradigmasida yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning nazariy asoslari .....	80
<b>Mirzatov Baxtiyor Toxirovich</b>	
Korxonalar innovatsion faoliyatida raqamli transformatsiyaning muhim yo'nalishlari .....	84
<b>Yuldasheva Kamola Miraliyevna</b>	
O'zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida) .....	89
<b>Yoriyeva Farangiz Murodillayevna</b>	
Innovatsion tadbirkorlik muhitini kompleks baholashda xalqaro tashkilotlar tajribasi.....	94
<b>Nazarova Umida Avazovna</b>	
Turizm faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirishning ayrim usullari .....	98
<b>Mirzaxodjayev Alisher Botirovich</b>	
Globallashuv sharoitida transchegaraviy suv resurslardan samarali foydalanishni boshqirish .....	103
<b>Mirzayev Musurmon Umidullayevich</b>	
Surxondardon viloyati iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni va ahamiyati .....	108
<b>Fayziyeva Aziza Azamat qizi</b>	
Ta'lim muassasalarida xarajatlarni moliyaviy nazorat etishning samaradorligi tahlili .....	113
<b>Eshonqulov Davlatjon Rajabboyevich</b>	
Ta'minot zanjirini boshqarishda transport logistikasi usullarini takomillashtirish .....	119
<b>Zoxidova Nazokat Berdimurot qizi</b>	
Blokcheyn texnologiyasida xavfsizlik masalalari .....	123
<b>Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich</b>	
Razvitiye cifrovoy tansformatsii bankovskogo sektora Respublikи Uzbekistan .....	129
<b>Abdurahmanova Matluba Mahamadaminovna</b>	



Asosiy fondlarni hisoblash va baholash usullarini takomillashtirish istiqbollari.....	135
<b>Rixsimbayev Odiljon Qobiljonovich</b>	
Marketingda tovar harakati tizimini optimallashtirish va modellashtirish.....	141
<b>Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Kamola Abdujabborovna Pardayeva</b>	
Iqtisodiy rivojlanish uchun strategik taqsimlash strategiyalari:	
Investitsion Fond Portfellarning qiyosiy tahlili.....	148
<b>Sultonboeva Munira bahodirovna</b>	
Soliq munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati: ilmiy-nazariy qarashlar.....	154
<b>Axrorov Zarif Oripovich, Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li</b>	
Vzaimosvazъь инвестиционной стратегии с оценкой эффективности инвестиционного проекта .....	159
<b>С. С. Алиева, А. Назаров</b>	
Erkin iqtisodiy zonalarning faoliyati va boshqaruv mexanizmini takomillashtirish.....	167
<b>Sheraliyeva Saida Azatovna</b>	
Xizmat safari xarajatlari hisobining huquqiy asoslari .....	170
<b>Ergashev Sarvar Xudoynazarovich</b>	
Инклюзивное образование и его особенности.....	175
<b>Зайнутдинова Умидा Джалоловна</b>	
Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari.....	179
<b>Qurbanov Muxiddin Abdullayevich</b>	
Mamlakatda soliq qarzdorligi vujudga kelishining asosiy sabablari va ularni qisqartirish yo'llari.....	184
<b>Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li</b>	
Mulk qiymatini baholash tushunchasi, baholash obyektlari, baholanadigan qiymat turlari.....	188
<b>Izbosarov Boburjon Bahriiddinovich, Yoqubboyev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li</b>	
O'zbekistonda sug'urta xizmatlarining zamonaviy transformatsiyasi.....	193
<b>G. Adilova</b>	
Biznes subyektlarida samaradorlik masalalarini o'yinlar nazariyasi usuli bilan baholash.....	197
<b>Mardiiev Nurali</b>	
Yengil sanoatda "lean production" konsepsiyasini tatbiq etishning amaliy jihatlari.....	203
<b>Yaxyayeva Inobat Karimovna</b>	
Soliq salohiyatini baholash usullari va ularning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'siri tahlili .....	207
<b>Borotov Sharofiddin Jumaqul o'g'li</b>	
Ko'chmas mulk bozorini baholashning institutsional asoslari .....	213
<b>Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.....	221
<b>Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna</b>	
O'zbekistonning bank-moliya tizimi hamda unda Islom moliyasi instrumentlarini jalb etishdagi joriy tendensiyalar .....	226
<b>Eshimov Alisher Dusmurodovich</b>	
Tashqi savdoda notarif usullarni qo'llashning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash metodologiyasi (rivojlangan davlatlar tajribasi) .....	234
<b>Norqobilov Akobir Iso o'g'li</b>	
Reklama xizmatlari va uning subyektlar samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari.....	240
<b>Rabbimov Elbek Abdulloyevich</b>	
Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sog'lioni saqlash tizimini moliyalashtirish asoslari .....	245
<b>Imonqulov Nuriddin Qo'shmon o'g'li</b>	
Tijorat banklari biznes ekotizimini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	250
<b>Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li</b>	
Majburiy tibbiy sug'urtaning vujudga kelishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	256
<b>Kenjayev Soxib Sayfiyevich</b>	
O'zbekiston Respublikasida zamonaviy soliq ma'murchiligini joriy etish orqali budget-soliq siyosati samaradorligini yanada oshirish.....	260
<b>Yuldasheva Shaxnoza Xojiakbar qizi</b>	
Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida derivativlar bozorining roli .....	266
<b>Shokirov Mirkamol Mirolim o'g'li</b>	
Boshqaruv hisobida mas'uliyat markazlarini tashkil etish masalalari.....	274
<b>Sobirov Otabeck Olimjonovich</b>	



Davlat moliyasini boshqarishda moliyaviy nazorat usullaridan samarali foydalanish yo'llari .....	277
<b>Kultayev Farxod Shavkatovich</b>	
Tijorat banklari foydasi va rentabilitik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar tahlilini takomillashtirish .....	281
<b>Normo'minov Temurbek Sheraliyevich</b>	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari aktivlar sifatini oshirish yo'llari .....	284
<b>To'ychiyev Otabek Shamshihevich</b>	
Vençur kapitalining mohiyati va O'zbekistonda vençur tizimini rivojlantirishning institutsional asoslari.....	288
<b>Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna</b>	
Innovatsiyalar: zamonaviy iqtisodiyot uchun innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash zarurati.....	293
<b>Malikova Dilrabo Muminovna, Tursunov Jahongir Ulug'bek o'g'li</b>	
Budjet daromadlarining shakllanishida egri soliqlarning ta'sirini ko'p omilli ekonometrik modellashtirishda tahlil qilish.....	297
<b>Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi</b>	
Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion jozibadorlikni oshirish yo'llari.....	302
<b>Abdullahayev Boburjon Akbaralievich</b>	
Barcha tadbirkorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratishda soliq imtiyozlarining o'rni .....	306
<b>Akbarov Akmalxon Akrom o'g'li</b>	
Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish .....	310
<b>Mirzayeva Nargiza Batirovna</b>	
Talabalarning oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv.....	314
<b>O. U. Shomurodov, A. A. Suyarov, Z. U. Uroqov, J. S. Urazov, A. T. Ablahatov</b>	
Ways to Use the Experience of Foreign Countries in Creating a Beneficial Business Environment for Entrepreneurship And Improving Taxation .....	319
<b>Mukhlisa Ikramova</b>	
Aholi turmush darajasini oshirishda moliyaviy savodxonlikning o'rni va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri .....	325
<b>Yusupov Muhammadali Sohib o'g'li, J.D. Xojiyev</b>	
Temir yo'l sanoat korxonalarida ijtimoiy-mehnat munosabatlarini boshqarish bo'yicha xorijiy tajriba.....	329
<b>Kadirova Sharofat Amonovna</b>	
Механизм внедрения аутсорсинговой деятельности в АО "Ўзтемирийўлайўловчи" .....	332
<b>H. З. Кахарова</b>	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish investitsiyalarni jalb qilishda xorijiy mamlakatlar tajribasi .....	337
<b>Sharipov Bobur Anvar o'g'li</b>	
"STEKLOPLASTIK" MJCHning bozordagi strategik holatini tahlil qilish .....	342
<b>Musyeva Shoiria Azimovna</b>	
Agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishning nazariy masalalari.....	348
<b>M. Sh. Nazarova, Z. S. Kazakova</b>	
Methodological Foundations of Bank Lending and Classification of Factors Affecting the Features of Obtaining Loans.....	353
<b>Raxmanova Laylo bahodirovna, A. Karimova</b>	
Agrosanoat klasterlarda tovar-moddiy zaxiralar samaradorligiini KPI orqali baholash uslubiyati .....	357
<b>Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich</b>	
Fao tadbirkorlar faoliyatida kambag'al oilalarni iqtisodiy-ijtimoiy holatini yaxshilash imkoniyatlari .....	362
<b>Salamov Ibrohim, Nazarova Maryam Sharifovna, Kazakova Zulayxo Saloxiddinovna, Jonibekov Faxriddin Beknazarovich, Kudratov Rizo Turdibayevich, Ulmasova Oygul Baxtiyorovna, Xamdamova Nasiba Ablakulovna, Xudayberdiyeva Ma'rifikat Umarovna</b>	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar strategiyasi tahlilining o'ziga xos xususiyatlari .....	369
<b>Tursunova Shaxnoza Farxod qizi</b>	
Процессы цифровизации АО "Худугазта'minot" .....	373
<b>Хусанов Каҳрамон Нишонович</b>	
O'zbekistonda aholi turmush darajasini oshirish yo'llari.....	378
<b>Abdullahayeva Madina Kamilovna, Eldorbekov G'ofurbek Iskandarbek o'g'li</b>	
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik subyektlari uchun kredit tizimini takomillashtirish mexanizmi .....	381
<b>Bobayev Isroijon Abdinabiyevich</b>	
Mamlakatga jalb qilingan xorijiy kapitalning tovarlar va xizmatlar importi salohiyatiga ta'sirini ekonometrik modellar bilan baholash.....	386
<b>Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li</b>	



O'zbekistonda bank xizmatlari raqobatbardoshligini baholash mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari.....	394
<b>Sh. Madraimov</b>	
Kapital bozorida sug'urta kompaniyalar institutsional investor sifatida .....	397
<b>Xasanova Lola Mamasharifovna</b>	
Yangi O'zbekiston strategiyasida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ko'p funksiyali raqamlashtirishning ilmiy asoslari .....	400
<b>B. B. Berkinov</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari orqali jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish mexanizmlari.....	409
<b>G'afurov Umidjon Bahodir o'g'li</b>	
Rivojlangan mamlakatlarda keksa fuqarolarning bandligini oshirish kam ta'minlangan aholi qatlamini qo'llab-quvvatlash usuli sifatida (Yaponiya tajribasi misolida).....	413
<b>Karimov Bekzodjon Ilhomovich</b>	
Tashqi savdoni oshirishda boj-tarif siyosatini takomillashtirish mexanizmlari .....	420
<b>Pardayev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li</b>	
Финансы или корпоративные финансы .....	426
<b>Уринов Бобур Насиллоевич</b>	
In Ensuring Economic Development in the Country Green Economy and its Features .....	432
<b>Akhunova Shakhistikhon Nomonjanovna, Abdusattorova Mokhirabonu Abdugovpor kizi</b>	
Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari .....	437
<b>Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li</b>	
Сокращение уровня бедности в Узбекистане.....	443
<b>Амирджанова Ситора Суннат кизи</b>	
Paxtachilik sohasida ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirishning innovatsion yechimlari va uning foydaga ta'sirini baholash .....	448
<b>S. B. Inoyatov</b>	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishslash amaliyotidagi muammolar va ularni barataraf etish yo'llari .....	453
<b>Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li</b>	
Mahalliy budjet daromadlarining nazariy va ilmiy asoslari .....	460
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna</b>	
Kambag'allikni qisqartirish – aholi turmush farovonligini ta'minlashning muhim omili .....	463
<b>Usmanov Baxodir Baxtiyorovich</b>	
Raqamli marketingni rivojlantirish zaruriyatি .....	469
<b>Xalmuxamedova Zeboxon Babaxanova</b>	
Tijorat banklari o'rtaqidagi raqobatni rivojlantirish orqali fond bozorida aksiyalar narxini barqarorligini ta'minlash istiqbollari .....	473
<b>M. Yuldasheva</b>	
Konchilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari .....	480
<b>Kurbanova Mehriniso Nematjanovna</b>	
O'zbekistonda banklar moliyaviy xizmatlari va ular sifatining amaldagi holati tahlili .....	487
<b>Mirzayev Mirza Abdullayevich</b>	
Oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy samaradorlikning raqobatbardoshligini instituttsional tahlil qilish mexanizmi .....	492
<b>Saydullayeva Saodat Abdumajidovna</b>	
Integrasiya sharoitida to'qimachilik sanoatining rivojlanishi .....	499
<b>Ziyayeva Muhtasar Mansurdjanovna</b>	
Auditorlik tekshiruvini tashkil etish va o'tkazish jarayonlarini takomillashtirish .....	503
<b>Karamatova Noiba Husnitdinovna</b>	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari .....	510
<b>Mamatov Mamajan Axmadjonovich</b>	
Экономическое сознание и экономическое мышление: теоретический анализ.....	517
<b>Пардаев Мамаюнус Каршибаевич, Мухаммедов Мурод Мухаммадович</b>	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklari tomonidan qurilish korxonalarini kreditlashni takomillashtirish yo'llari .....	522
<b>Sultanov Baxram Begdullayevich</b>	



Роль искусственного интеллекта в современных технологиях медиаобразования в высших учебных заведениях.....	526
Самигова Гуландом Абдулжаббаровна	
Talabalarga moliyaviy yordam dasturlari va ularning ta'lrim sifatiga ta'siri .....	534
Mirzayeva Muhlisa Ubaydullo qizi	
Mintaqaviy investitsion jozibadorlik va investitsion siyosat: nazariy talqin .....	539
Muminov Akmal Tulkunovich	
Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oliy ta'lim tizimining ta'siri .....	543
Nasimov Adiz Azamat o'g'li, Baxtiyorova Jasmina Jasurovna, Axrorov Zarif Oripovich	
Respublikada fermer xo'jaliklarga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va agroizmatlar bozorini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari .....	548
Shukurov Ilxom Safarboyevich	
Turli mamlakatlarda oliy ta'limni moliyalashtirish yo'llari .....	555
Umarova Moxigul Maxmayunus qizi	
Dehqonchilikni innovatsion asosda rivojlantirishning xorijiy tajribasi .....	560
Yuldashev G'iyos Turabekovich	
Tijorat bank xizmat turlarini islomiy bank xizmatlari orqali rivojlantirish istiqbollari .....	564
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Qishloq xo'jaligi mahsulotini baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish .....	570
Boltayev Abror Sayitmuradovich	
Секреты интересного урока в начальной школе.....	577
Гараева Олеся Владимировна	
Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishda yashil iqtisodiyotning o'rni.....	580
Ibragimova Gulchehra Toxirovna	
Mahsulot va xizmatlarni raqamli transformatsiyasini amalga oshirish algoritmi.....	584
Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, Bobojonov Azizjon Babaxanovich, Abdurakhmonov Abdumalik Abdurashidovich	
O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish vositasi sifatida.....	591
Nabiiev Feruz Nurmurodovich	



# TASHQI SAVDONI OSHIRISHDA BOJ-TARIF SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI

**Pardayev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi,  
O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi  
Bojxona qo'mitasi Tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash boshqarmasi  
boshlig'i

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jahon bozorida tashqi savdoni tartibga solishda va oshirishda mamlakatlardagi boj-tarif siyosatini takomillashtirish holati tahlil qilingan. Jahon bozoridagi tashqi savdoning zamонави усуллари haqida so'z yuritilgan. Bundan tashqari, taraqqiy etgan mamlakatlar va rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan qo'llanilayotgan notarif usullarning ahamiyati, o'rni va roli ochib berilgan. Jahon bozorda tashqi savdoni oshirishda boj-tarif siyosatini takomillashtirish yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** jahon bozor, tashqi savdo, eksportga subsidiyalar, miqdoriy cheklovlari, himoya choralari, importni cheklash tadbirlari, dempingga qarshi tekshirishlar, savdoga texnik to'siqlar, subsidiyalashga qarshi.

**Abstract:** This article analyzes the state of improving customs policies in countries in the field of regulation and increasing foreign trade on the world market. Modern methods of foreign trade on the world market are discussed. In addition, the meaning, place and role of notarial methods used by developed and developing countries is revealed. Practical proposals and recommendations for improving customs policy are presented in order to increase foreign trade on the world market.

**Key words:** world market, foreign trade, export subsidies, quantitative restrictions, protective measures, import restriction measures, anti-dumping inspections, technical barriers to trade, anti-subsidies.

**Аннотация:** В данной статье анализируется состояние совершенствования таможенной политики в странах в сфере регулирования и увеличения внешней торговли на мировом рынке. Обсуждаются современные методы внешней торговли на мировом рынке. Кроме того, раскрывается значение, место и роль нотариальных методов, используемых развитыми и развивающимися странами. Представлены практические предложения и рекомендации по совершенствованию таможенной политики в целях увеличения внешней торговли на мировом рынке.

**Ключевые слова:** мировой рынок, внешняя торговля, экспортные субсидии, количественные ограничения, защитные меры, меры ограничения импорта, антидемпинговые проверки, технические барьеры в торговле, антисубсидирование.

## KIRISH

Jahon xo'jaligi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlaridan biri – bu xalqaro iqtisodiy munosabatlarning intensiv rivojlanib borishi hisoblanadi. Bu esa mamlakatlar, mamlakatlar guruhi, alohida firma va korxonalar o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayishi tobora chuqurlashuvi bilan izohlanadi. Ushbu holat jahon bozorida, shuningdek, uning turli segmentlarda yuzaga kelayotgan konyunkturaviy o'zgarishlar har qanday davlatni jahon bozorida faollashishga, bunda tashqi savdoni tartibga solish, nazorat qilish va qo'llab-quvvatlash vositalari hamda dastaklaridan har qachongidan ham ko'proq unumli foydalanishga undamoqda.

Jahon xo'jaligida davlatlar tashqi savdo aloqalarini qaytadan tashkil etish, ayrim tarmoq va sohalarda tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish zarurati borligi ham ayon bo'lmoqda. Natijada, keyingi yillarda global va mintaqaviy darajada dunyo tashqi savdosida yangi yo'nalishlarda siljishlar ro'y bermoqda. Davlatlarning tashqi savdo strategiyalarida ham tub o'zgarishlar namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda ham tashqi savdo siyosatini takomillashtirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 13-apreldagi PF-5012-sonli "Tashqi savdo sohasida boshqaruva tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni mamlakatimiz tashqi savdo aloqalarining samaradorligini yanada oshirish, tashqi savdoni liberallashtirish, eksport salohiyatini mustahkamlash hamda raqobatdosh mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga chiqarish tizimini takomillashtirish, mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan xorijiy sheriklar o'rtasida savdo sohasida uzoq muddatli barqaror sheriklik munosabatlarini shakllantirish maqsadlariga xizmat qilishi ko'zda tutilgan.



Mazkur farmon bilan tashqi savdoni boshqarish, nazorat qilish, tartibga solish va rag'batlantirish bo'yicha tashkiliy-institutsional tizim yanada takomillashib, eksport va import faoliyatlarini yanada jadallashtirish uchun qo'shimcha imkoniyatlarni yanada samarali jalb etishni ko'zda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi yangi tuzilma – O'zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligi etib qayta tashkil qilindi. O'zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligi avvalo, tashqi savdo sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish hamda tashqi savdo faoliyatini tartibga solish sohasida davlat boshqaruvi organlari ishini muvofiqlashtiradi. Shuningdek, ushbu vazirlik o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan va normativ-huquqiy xarakterga ega bo'lgan qarorlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari, mulkchilik shakli va idoraviy mansubligidan qat'i nazar, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tashqi savdo, tashqi savdo siyosati, tashqi savdoni tartibga solish usullari bo'yicha ko'plab iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqot olib borganlar. Jumladan, tashqi savdo siyosati bo'yicha zamonaviy yondashuvlar asosida tadqiqot olib borgan iqtisodchi olimlar fikrlariga to'xtalib o'tamiz.

Tashqi savdo, tashqi savdo siyosati, tashqi savdo strategiyalari va unga bog'liq nazariy va amaliy masalalar so'nggi yillarda turli yondashuvlarga tayangan holda rivojlanib bormoqda. Bu tadqiqotlar zamonaviy iqtisodiyotlarda yuzaga kelayotgan yangi vaziyat yoki holatlar, tendensiyalarni o'rganish natijalari hisoblanadi. Masalan, V.V.Sokolov "Eksport – tovar, xizmatlar, intellektual mulk natijalari, shu jumladan ularga doir mutlaq huquqlarni bojxona hududidan xorijga qaytarib olib kelish majburiyatisiz olib chiqishdir", deb hisoblaydi (2, 40-47-betlar).

V.Pankov xalqaro savdoning zamonaviy xususiyatlarini tadqiq etar ekan, 7 ta jihatga alohida e'tibor qaratadi. Bular – ilm-fan va texnika taraqqiyoti ta'sirida mahsulot hamda xizmatlar savdosi hajmining keskin ortishi, xalqaro savdoda rivojlanayotgan mamlakatlar salmog'ining qisqarib borayotganligi, fan va texnika taraqqiyoti ta'sirida jahon eksportining tovar tarkibidagi fan sig'imkorligi yuqori bo'lgan mahsulot va xizmatlar ulushining ortib borishi, tashqi savdo aylanmasining jon boshiga baholangan qiymatining notebris taqsimlanayotganligi, yangi tarmoq va ishlab chiqarishlarning vujudga kelayotganligi, borgan sari ko'proq mamlakatlarning alohida mahsulotlar guruhi importiga bog'liqligining ortib borishi va tashqi bozorda ortiqcha mahsulotni sotishdan turli mamlakat korxonalari o'rtaqidagi hamkorlik aloqalari asosida avvaldan kelishilgan holda mahsulotni yetkazib berish shakliga o'tish kabilalar (3, 16-28-betlar).

Bulatova A.S. va Livenseva N.N.lar tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligini tadqiq etib, uni baholashda 10 ta ko'rsatkichni ajratib ko'rsatadi. Shu bilan birga, ular tashqi savdoni tartibga solishning ustuvor yo'nalishlarini ham tahlil qilishadi (4, 183-188-betlar).

A.Vahobovning fikricha, "iqtisodiy faoliyatga bevosita va bilvosita aralashuvi jarayoni eksport va import hajmi va tarkibiga ta'sir ko'rsatish orqali ichki bandlilikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishga erishish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, to'lov balansini yaxshilash hamda valyuta kursini tartibga solish maqsadlarini ko'zda tutadi. Olimning ta'kidlashicha, savdo siyosati – budget soliq siyosatining, tashqi savdo hajmlarini soliqlar, subsidiyalar, valyuta nazorati va import yoki eksportni to'g'ridan to'g'ri cheklashlar orqali tartibga solishni o'z ichiga olgan umumiyligi iqtisodiy siyosatning nisbatan mustaqil yo'nalishidir (5, 274-288-betlar).

Tashqi savdo faoliyatini to'g'ri rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish va amalga oshirish, aniqligiga erishish uchun tasniflash lozimligini ta'kidlagan iqtisodchilardan biri bu N.Ivanovdir. Uning fikricha, tasniflash deganda xalqaro tijorat kelishuvini oldi-sotdi va tovar almashish kelishuvlariga ajratish mumkin. Tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish xarakteri va predmetiga ko'ra tayyor mahsulotlar, yig'ilmagan ko'rinishdagi mahsulotlar, eskirgan uskunalar, xomashyo, litsenziyalar savdolari hamda barter operatsiyalari va injiniring xizmatlari ko'rsatish kabilardan iborat bo'ladi (6, 44-51-betlar).

Umuman olganda ushbu sohada tadqiqotlar olib borgan iqtisodchi olimlarning tashqi savdoni tartibga solish tizimini takomillashtirishga qo'shgan ulushlarini e'tirof etgan holda, shuni ta'kidlash lozimki, bu tadqiqotlarda Yaponiyada tashqi savdoni tartibga solish bo'yicha zamonaviy usullar va bu usullarning Yaponiya tashqi savdosi hajmiga, umuman iqtisodiyotiga ko'rsatayotgan ta'siri masalalari yoritib berilmagan. Bu esa ushbu maqola mavzusini dolzarbligini belgilab beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishini amalga oshirishda Yaponiyada tashqi savdoni tartibga solish usullari va vositalari asosiy tadqiqot obyekti bo'lib tanlab olindi. Shuningdek, xalqaro savdoda mahsulotlarga qo'llaniladigan notarif usullar, tashqi savdoda Osiyo mamlakatlari tomonidan qo'llanilayotgan dastaklar, Yaponiyaning xalqaro savdoda mamlakatlarga qo'llanilgan notarif dastaklari yillar bo'yicha dinamik tahlil qilindi. Tadqiqotda guruhlash va qiyosiy tahlil usullaridan ham foydalanildi.




## TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda jahon mamlakatlarining xalqaro bozordagi ishtiroki va bu bozorda o'zlarining mavqelarini yanada mustahkamlashga bo'lgan intilishlari tobora keskinlashib borayotgan raqobat kurashi sharoitida ro'y bermoqda. Bu vaziyat davlatning tashqi savdo munosabatlari aralashish miqyosi, tashqi savdoni tartibga solish darajasidan kelib chiqib, hukumatlarning tashqi savdo siyosatida qo'llaydigan proteksionistik yoki erkin savdo usullarida ham o'z aksini topmoqda.

Zamonaviy tendensiyalar shuni ko'rsatmoqdaki, tashqi savdo siyosati bu umumiqtisodiy siyosatning soliqlar, subsidiyalar, valyuta nazorati, import yoki eksportni to'g'ridan to'g'ri cheklashlar orqali tartibga solishni o'z ichiga olgan nisbatan mustaqil yo'nalishi hisoblanadi. Aytish o'rinniki, tashqi savdoni cheklash borasida olib borilayotgan har qanday chora-tadbirlar ko'pincha qisqa muddatli samara beradi. Uzoq davr uchun esa, bu rivojlangan davlatlar tajribasida o'z ifodasini topgan, faqat erkin savdogina iqtisodiy resurslarni yanada oqilona hamda samarali joylashtirishga imkon beradi. Garchi, erkin savdo jahon iqtisodiyoti nuqtayi nazaridan foydali bo'lishi mumkin bo'lsa-da, alohida olingen rivojlanayotgan mamlakat iqtisodiyotini har tomonlama yuksaltirish nuqtayi nazaridan bu yondashuv hamma vaqt ham o'zini oqlamaydi.

Ma'lumki, tashqi savdoni cheklash usullarining 50 dan oshiqroq turi mavjud. Ularning ayrimlari davlat g'az-nasini to'ldirishga yo'naltirilgan bo'lsa, ba'zilari umuman importni cheklashga va yana boshqasi esa eksportni cheklashga yoki rag'batlantirishga yo'naltirilgan. Tashqi savdoni tartibga solishning ikkita guruh usullari – tarif va notarif usullaridan foydalaniladi. Xalqaro savdoda mamlakatlar import mahsulotlariiga o'zining taqilarni yoki dastaklarini qo'llaydi. Umuman olganda, jahon davlatlari turli maqsadlarda 43400 dan oshiq notarif usullaridan foydalanadilar. Shulardan eng ko'p qo'llaniladiganlari savdoga texnik to'siqlar qo'yish – 21926 ta, sanitar va fitosanitar chora-tadbirlar – 15670 ta, dempingga qarshi tekshirishlarni amalga oshirish – 2084 ta, miqdoriy cheklovlar belgilash – 1108 ta, tarif darajasiga kvotalar belgilash – 1274 tani tashkil etmoqda (1-rasm).



1-rasm: Xalqaro savdoda mahsulotlarga qo'llaniladigan notarif usullar (birlik, 01.01.2022-yil holati)

Manba: <https://i-tip.wto.org/goods/Forms/ProductView> ma'lumotlari asosida tuzilgan.


Umuman olganda xalqaro savdoda mahsulotlarga qo'llaniladigan notarif usullarning mavjudligi, har bir mamlakatning o'zining milliy ishlab chiqaruvchilarini qo'llab-quvvatlash, ularning xalqaro savdoda mahsulotlari raqobatbardoshlilagini ta'minlashga olib keladi.

Mamlakatlar tashqi savdosi tovar va xizmatlar ishlab chiqarishga nisbatan jadal sur'atlar bilan rivojlangan. Bu esa dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida eksport va import kvotalarining o'sishiga, savdoga texnik to'siqlarning ko'payib borishiga va oziq-ovqat mahsulotlarning sifati va xavfsizligi uchun yuqori darajadagi talablarni qo'ygan holda sanitar va fitosanitar chora tadbirlarning ko'p miqdorda qo'llanishiga olib keldi. Albatta, bu raqamlar bugungi kunda mamlakatlar o'zining milliy mahsulot ishlab chiqaruvchilarini himoya qilib, eksportni kuchaytirishga har tomonlama harakat qilayotganini ko'rsatadi.



Butun jahon savdo tashkilotining tashqi savdoni erkinlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlariga qaramasdan, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining keyingi to'lqinlari sharoitida tashkilotga a'zo mamlakatlar o'tasida qo'llanilayotgan notarif chora-tadbirlar, jumladan, sanitar va fitosanitar chora-tadbirlar soni barqaror sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Ma'lumotlar 2000–2022-yillarda qo'llanilgan sanitar va fitosanitar chora-tadbirlar soni 468 tadan 1681 tagacha, texnik to'siqlar soni esa 633 tadan 1989 tagacha ortaganligini ko'rsatmoqda [7]. Bu davr oralig'ida subsidiyalashga qarshi chora tadbirlari miqdori sezilarli darajada o'zgarmadi. Dempingga qarshi tekshirishlar 0,8 foizga kamaygan. 2000–2022-yillarda mamlakatlarning taraqqiy etishi va insonlarni sog'lig'i va iste'moli uchun e'tiborning ortishi sanitar va fitosanitar chora-tadbirlar 3,6 martaga ko'payishiga olib keldi. Texnik to'siqlarning esa 3 marta ko'p qo'llanilayotganligini ko'rshimiz mumkin. Umuman olganda xalqaro savdoda qo'llanilgan notarif usullarning qo'llanilishi o'rtacha 0,4 foizga ko'paydi.

Osiyo mamlakatlari qo'llayotgan usullar e'tiborga molik. Masalan, 2022-yil ma'lumotlariga ko'ra, Avstraliya import mahsulotlariga 411 ta sanitarki va fitosanitarik to'siqlar, savdoga 203 ta texnik to'siqlar, 122 ta miqdoriy cheklovlar, 2 ta ta'rif kvotalari, 6 ta eksport subsidiyalari dastaklar joriy etgan. Yaponiya 498 ta sanitariya va fitosanitarik chora-tadbirlar, 775 ta savdoga texnik to'siqlar, 57 ta maxsus to'siqlar, 42 ta miqdoriy cheklovlar, 18 ta tarif kvotalari mavjud. Umuman olganda, Sharq mamlakatlarda Xitoy, Yaponiya, Koreya mamlakatlarda dunyoda eng ko'p qo'llaniladigan dastaklar mavjud. Bundan ko'rinib turibdiki, Sharq mamlakatlarda dunyoda juda ko'p davlat tomonidan qo'llanilayotgan to'siqlarning mavjudligi, uning eksport salohiyati va tashqi savdosini o'sishiga olib kelayotganligini ko'rshimiz mumkin (2-rasm).



**2-rasm:** Xalqaro savdoda qo'llanilgan notarif usullar sonining o'zgarishi, birlik

Manba: <https://i-tip.wto.org/goods/Forms/ProductView> ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Dunyo mamlakatlari ichida iqtisodiy jihatdan namunalni tajribaga ega bo'lgan davlatlardan biri bu Yaponiyadir. Yaponiyaning tashqi savdo siyosatini amalga oshirish va unda davlatning faol ishtiroti Yaponiyaning o'ziga xos xususiyatidir. Davlat tashqi iqtisodiy faoliyatining deyarli barcha yo'nalishlarini o'ziga qamrab olgan va uni tartibga solib turadi, ichki va tashqi ahvolni tahlil qilishdan boshlab, tashqi iqtisodiy strategiyani ishlab chiqish, geografik va tarkibiy sohalarni muhimligini aniqlab, nazorat qilish va tartibga solishda moliyaviy rag'batlantirish uslublarini qo'llaydi.

Tashqi savdo siyosatini amalga oshirishda Yaponiya keng huquqiy normativ bazaga tayanadi. Qonuniy va huquqiy-ma'muriy tartibga solish tizimi ustuvorlik asosida namoyon bo'lib, uni «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi Qonun davlatning umumiylar tartibga solish orqali amalga oshiradi. Bu qonunda Xalqaro Valyuta Fondi, Butunjahon Savdo tashkiloti kabi xalqaro tashkilotlarning kodeksidan asosiy tamoyillar – savdoni erkinlashtirish haqidagi xalqaro sharhnomalar, erkin va har tomonlama savdo tamoyillari mavjudligi tufayli erkin deb hisoblash mumkin. Erkin tashqi iqtisodiy faoliyat prinsipidan kelib chiqib, oddiy hollarda faqat minimal darajada davlat nazoratini amalga oshiradi.

Tashqi savdo siyosati puxta o'ylangan davlat siyosati, davlatni rivojlantirishda, tashqi iqtisodiy aloqalarni asosiy ta'sirchan omillaridan biriga aylantiradi. Bu siyosat Yaponiyaning milliy manfaatlarini hisobga olgan holda jahon xo'jaligida uni yirik xalqaro iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va moliyaviy savdo markaziga, jahon iqtisodiyotiga qo'shilishi uning salmoqli qatnashchisiga aylantirdi. Xalqaro savdoni davlat tomonidan tartibga solinishida ma'muriy-huquqiy, iqtisodiy va norasmiy kabi bir-birini to'ldiruvchi uslublardan keng foydalilanildi (1-jadval).



**1-jadval:** Tashqi savdoda Osiyo mamlakatlari tomonidan qo'llanilayotgan dastaklar soni, 2022-y.

Mamlakatlар	Sanitar va fitosanitar chora-tadbirlar	Savdoga texnik to'siqlar	Maxsus to'siqlar	Miqdoriy cheklovlar	Tarif kvotalari
1	2	3	4	5	6
Australiya	411	203		122	2
Xitoy	1192	1179		21	10
Gonkong	40	78		103	
Hindiston	163	101		59	3
Indoneziya	114	113			2
Yaponiya	498	775	57	42	18
Koreya Respublikasi	554	798	39	92	67
Makao	19	6		10	
Malayziya	37	229			13

Manba: <https://i-tip.wto.org/goods/Forms/ProductView> ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Dunyoning turli mamlakatlari o'z savdo siyosatlarini amalga oshirish uchun turli dastaklardan foydalananadilar. Notarif cheklashlarning o'ttacha darajasiga ko'ra, Yaponiya yuqori darajada rivojlangan mamlakat bo'lib, postindustrial davlat hisoblanadi. Avtomobil, kema, maishiy texnika, sanoat robotlari, dastgohlar ishlab chiqarish va baliq ovlash bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinda turadi. Yaponiya dunyoning aksariyat mamlakatlari bilan tashqi savdoni yo'lga qo'yan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Jahon bozorida ishtirok etayotgan mamlakatlarning so'nggi yillardagi tashqi savdo siyosatida tashqi savdoni tartibga solish dastak va vositalardan foydalanish tendensiyalari ko'zga yaqqol tashlanadi. Jahon savdosи erkinlashib borishi o'rniga deyarli barcha davlatlar an'anaviy qabul qilingan tarif va notarif usullardan tashqari boshqa turdagи dastak va vositalardan o'zlarining ichki bozorlarini himoyalash yoki tashqi bozorda faoliyat ko'rsatayotgan eksportchilarini qo'llab-quvvatlash maqsadida qo'llashga harakat qilmoqdalar. Ammo jahon savdo tashkiloti bunday proteksionistik harakatlar va urinislarga zid o'laroq tovar, mahsulot, ish va xizmatlarning erkin harakatini ta'minlashga qaratilgan siyosatni davom ettirmoqda.

Tashqi savdoni tartibga solishda nisbatan qat'iy usul, dastak va vositalarni ko'proq Osiyo davlatlari faol qo'llayotganlari ham tahlil natijalarida ma'lum bo'ldi. Osiyo davlatlari jahon bozorida o'zlariga munosib mustahkam o'r'in egallash uchun tashqi savdoni tartibga solishning milliy ishlab chiqaruvchilar manfaatlariga to'g'ri keladigan barcha usullardan foydalanishga harakat qilishmoqda. Nazariy jihatdan olib qaraganda, rivojlanishning jadal bosqichi va davrlarida Germaniya ham (19-asrning oxirlari), AQSH ham (20-asrning boshlari) tashqi savdoda keng ko'lamlı dastak va usullardan foydalanishgan. Bir qaraganda, globallashuv va tashqi savdoning keng miqyoslarda erkinlashtirilishi yuz berayotgan so'nggi 15-20-yilda aslida rivojlangan davlatlar ham o'zaro turli usullarni qo'llab kelishmoqda.

Yaponianing keyingi 5-10-yilda iqtisodiyotidagi nisbiy tushkunlik hodisalari borgan sari tendensiyaga aylangandan so'ng bu davlat ham tashqi savdoda proteksionistik yondashuvlariga ko'proq murojaat eta boshladi. Biroq bizningcha, bunday tendensiyalar uzoq davr uchun davom etishi mumkin emas. Chunki rivojlangan davlatlar iqtisodiyoti mazmun – mohiyatiga ko'ra erkin bozor iqtisodiyoti bo'lganligi sababli bundan chora-tadbirlar u yoki bu iqtisodiy muammo keskinlashib ketishining oldini olish uchun qo'llaniladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O'zbekiston jahon bozoriga chiqib faol tashqi savdo siyosatini amalga oshirishi uchun yuqorida ta'kidlangan usul va vositalardan imkonli boricha qayishqoq shaklda, milliy ishlab chiqaruvchilarning manfaatlaridan kelib chiqib, ularning mavqeyini yanada mustahkamlashga qaratilgan tashqi savdo siyosatini amalga oshirishi maqsadga muvofiq. Buning uchun taraqqiy etgan va rivojlanayotgan mamlakatlар tomonidan qo'llanilayotgan usul va vositalarni doimiy tahlil etish, ularning bizning sharoitlarga muvofiq keladi.



ganlarini o'zlashtirib olish lozim. Agar O'zbekiston uchun xulosa chiqaradigan bo'lsak, tashqi savdoni tartibga solishda mamlakatimizda ko'proq Janubiy Koreya, Yaponiya tomonidan bosqichma-bosqich qo'llanilayotgan vosita va dastaklarni ichki vaziyatidan kelib chiqib, shuningdek, asosiy hamkorlarimizning biz bilan amalga oshirayotgan investitsiyaviy, infratuzilmaviy loyiha va dasturlarining istiqbolidan kelib chiqib qo'llash natija beradi, deb hisoblash mumkin. Bu harakatlarning 2022-2033-yillarga mo'ljallangan o'rta muddatli, shuningdek, undan keyingi davrlar uchun ishlab chiqilgan uzoq muddatli rivojlanchish dasturlariga xizmat qilishi shubhasizdir.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tashqi savdo sohasida boshqaruva tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 13-aprelda qabul qilingan PF-5012-sonli Farmoni. [lex.uz/ru/docs/-4182345](http://lex.uz/ru/docs/-4182345)
2. Соколов В.В. Тенденции развития мировой товарной торговли // Мировая экономика и международные отношения. – М.: 2011. – № 2. – С. 40-47.
3. Паньков В. Глобализация экономика. // Мировая экономика и международные отношения. – М.: 2011. – № 1. – С. 16-28.
4. Булатова А.С., Ливенцева Н.Н. Мировая экономика и международные экономические отношения: учебник. – М.: Магистр, 2010. – С. 183-188.
5. Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar". – T.: Baktria press, 2015. – 548 bet.
6. Иванов Н. Инновационная сфера: контуры будущего. // Мировая экономика и международные отношения. – М.: 2010. – № 5. – С. 44-51.
7. "Mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirishning innovatsion jihatlari: xorij tajribasi, zamonaviy tendensiyalar, ustuvor y o'nalishlari", Respublika ilmiy-amaliy anjumani, 2017-yil 10-may, -T.: ToshDShl. – 295 b.
8. JETRO Invest Japan Report 2016, – 56 p.
9. Trade Statistics of Japan, Ministry of Finance 2016, – 256 p.
10. Trading economics.com; The World Bank Group 2016, – 182 p.
11. World Trade Statistical Review 2016. – p.94.
12. UN Comtrade. International trade statistics database 2016, – P. 63.
13. <https://i-tip.wto.org/goods/Forms/MemberView> (World Trade Organization)
14. [https://www.wto.org/english/res\\_e/publications\\_e/world\\_tariff\\_profiles16\\_e.htm](https://www.wto.org/english/res_e/publications_e/world_tariff_profiles16_e.htm) (World Trade Organization)

# Yashi

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 2**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

**Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

